

TABIY FANLARNI O'QITISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI, USULLARI VA VOSITALARI

Xamidova Zaynura Ramazonovna

O'zbekiston Milliy universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarning ta'limga tizimiga joriy etilishi, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda joriy etilgan tabiiy fanlar fanini o'qitishning o'ziga xosligi va davr talabi ekanligi yoritilgan. Tabiiy fanlarni o'qitishga qo'yilayotgan davlat standartlari, va talablari borasida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birga aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlarni o'qitishdan maqsad va samaradorlik aniq ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, xorijiy tajriba, davlat ta'limga standartlari, maqsad, ta'limga tarbiya, usul, vosita, didaktika.

So'ngi yillar butun dunyo jamiyatida sanoat inqilobiga o'tish jadal rivojlanish, globallashuv davrini boshidan kechirmoqda. Bu jarayon global elektronika, kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish, axborotlashtirish, raqamlashtirish, texnologiyalash, virtualizasiya, intelektualizasiyaning keng rivojlanishiga olib keldi. Endilikda dunyo hamjamiatining oldida yuqori keltirib o'tilgan sohalarning mamlakatda rivojlantirish va shu soha kadrlarini yetishtirishni talab etadi. Biz yashayotgan bugungi kunni texnologik rivojlanishlar davri deb atashimiz mumkin. Zamonaviy jamiyatning ajiralmas qismi bo'lgan texnologiyalar yanada rivojlanmoqda. Innovasion rivojlanish tufayli xozirgi kunga kelib dunyo hamjamiatida STEAM kasblariga talab darajasi 17%ga oddiy kasblarga esa 9.8% ga talabning oshganini ko'rsatmoqda. Shu sababli dunyo bo'y lab ushbu ta'limga tizimiga talab ortib bormoqda. Shu munosabat bilan kompyuter texnologiyalari sohasi davlati siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. STEAM ta'limga joriy etilishi "yangi iqtisodiyot" talabi bilan ham belgilanadi. Uzoq kelajakda hozir tasavvur qilish qiyin bo'lgan zamonaviy kasblar paydo bo'ladi. Ularning barchasi tabiiy fanlar bilan bir nuqtada tutashadi. Bio va nanotexnologiya mutaxassislariga bo'lgan talab ayniqsa oshadi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish muammolari ko'p qirrali xususiyatga ega va shunga mos ravishda fanlararo yondashuvni talab etadi. Shu sababli yurtimizda ham STEAM ta'limga milliy ta'limga dasturiga kiritish va uning samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Keng jamoatchilik hamda professor-o'qituvchilar tomonidan STEAM ta'limga afzallikkleri va imkoniyatlari to'g'risida keng ommaga ma'lumotlar berilmoqda. Bu borada o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limga vazirligining 2021-yil 27-avgustdagagi "Umumiyligi o'rta ta'limga maktablarida STEM ta'limga tizimini joriy etish to'g'risida"gi 274- son buyrug'iiga binoan umumta'limga maktablari fanlari STEAM ta'limga tizimlashtirish ishlari amalga oshirildi. Umumiyligi o'rta ta'limga uchun STEM dasturlari ishlab chiqildi. 1-6 sinflardagi atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, biologiya, geografiya, fizika fanlari o'rniga (Science) tabiiy fanga aylantirish dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilar uchun qo'llanma sifatida "O'qituvchi kitobi" yaratildi. Maktablarda umumiyligi fan sifatida tabiiy fan darsliklari joriy etildi. Bundan ko'zlangan maqsad zamon talablariga javob beradigan STEAM dasturiga mos keladigan milliy ta'limga rejasini to'ldiradigan dasrlik sifatida chnashr ettirildi. Umumiyligi o'rta ta'limga muassasalarida fanlarni o'qitishda integrasiyaga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu STEAM dasturalariga mos kelishini ta'minlash bilan birgalikda jamiyatda o'quvchilarning zamon talablariga munosib bilim olishlariga imkoniyat yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limga tizimi dasturiga STEAM ta'limga kiritilishi kasblar evolyutsiyasining natijasidir. Ya'ni bugungi kun zamon talablariga mos yangi STEAM fanlari mos zamonaviy kasb xunarni egallash va shunga munosib kadrlarni yetishtirish masalasida amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ta'limga tizimi ham katta o'zgarishlar markazida turibti. O'qituvchilar turli xil zamonaviy texnologiyalar orqali muvofaqiyatli kasbiy faoliyat va yuqori darajadagi raqobatbardoshlik uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga intilishadi. Bu shubhasiz

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2024

yuqorida tavsiflangan jamiyatni o'zgartirishdagi barcha global tendensiyalar tegishli, davrga mos texnologiyalarning paydo bo'lishi uchun zarur shart bo'lib xizmat qildi. Ulardan biri STEAM ta'lomidir.

STEAM dasturlari konsepsiysi o'quvchilarni o'zlari yaratishni o'z ichiga oladi. Ilm fan bir joyda turmaydi zamon va makonga qarab o'zgarib boradi. STEAM ta'limi olgan bilimlarni qllash bilan birgalikda yangi yechimlarni topish uchun mavjud ma'lumotlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqadi va ilm-fan hamda texnologiyaning ilgari foydalanmagan imkoniyatlarini kashf etadi. STEAM bor amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lomidir. O'quvchilar ayrim amaliy tajribalar orqali o'zlarining amaliy ko'nikmalarini yanada oshiradi. STEAm ta'limi bo'yicha o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularning zamon talablariga munosib kasb egasi bo'lishlariga ko'maklashish darkor.

Hozirda butun dunyo mamlakatlarda STEAM mutaxsislarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu jumladan mamlakatimizda ham STEAM ta'lismi dasturlarining yaratilishi va STEAm ta'limga o'tish tashabbusi bilan ta'lismi tizimida STEAM ta'limga javob bera oladigan pedagoglarga bo'lgan talab ham ortadi. Shunday ekan malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o'qituvchilarni STEAM ta'limi bo'yicha o'qitish zaruriyatini tug'diradi. Malaka oshirish kurslarini tashkil etishda bizning nazarimizda qvuyidagilarga e'tibor berish orqali o'qituvchilarni STEAM ta'limi bo'yicha kasbiy komponentlarini oshirish imkoniyatini beradi.

1. Maxsus va STEAM ta'limga oid yangi bilimlarni berish
2. STEAM ta'limi bo'yicha bilimlarga extiyojini qondirish
3. Tanqidiy va kreativlik fikrlash qobiliyatini boyitish
4. Tashkilotchilik va amaliy mashg'ulotlarni olib borish ko'nikmasini yanada rivojlantirish
5. Pedagogik mahoratini yanada oshirish va STEAM ta'limga munosib etib shakllantirish

O'qituvchilar doimo o'z ustida ishlashni yanada ko'paytirish lozim. Shuningdek, o'zlarini tahlil qila olish va o'z faoliyatiga baho berishni shakllantirishi sifatli ta'lim berishni kafolatlaydi. Tabiiy fanlarni STEAM ta'limi asosida o'qitishda o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari jarayonida zamonaviy innovation ta'lim texnodlogiyalaridan foydalanish, amaliy mashg'ulotlar tashkil etish, STEAM ta'liming amaliyot bilan chambarchas bog'liqlagini ko'rsatib beradi. Ijodiy seminearlar tashkil etish, muammoli vaziyat metodlaridan, guruhli munozara, trening ilmiy-amaliy tajribalar kabi bir nechta zamonaviy metodlardan foydalanib tashkil etish, bu kurslarning yanada samarali bo'lishini kafolatlaydi. Kuzatishlar va o'rganilgan tajribalar orqali aytishimiz mumkinki, o'qituvchilarda STEAM ta'lim berish malaka oshirish kurslaridan tashqari o'z o'starida mustaqil ishslashlari orqali ham rivojlantirish mumkin. Metodik ishlarni tashkil etishda ta'lim muassasalari hodimlarining pedagogik mahoratlari va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatları potensial o'sadi va kengayadi. Ilg'or pedagogik tajribalar keng qo'llaniladi.

Tabiiy fanlar o'qitishda STEAM ta'liming ahamiyati nomli malaka oshirish kurslarida kurs tashkilotchilari tomonidan "Algoritm reja" tuzishlari kerak va bu rejaga muvofiq ular o'rganishni xoxlaydigan va amaliy faoliyati uchun kerak bo'ladigan yangiliklar va o'zgartirishlarni ketma-ket yozib chiqishlari va shu asnoda monitoring qilinib qiziqqan yo'naliшlaridan darslarni tashkillashtiri lozimdir. STEAM ta'lmini o'rgatishda o'rganuvchilarga STEAM o'rganish vositalari ya'ni: uskunalar, g'oyalar, xodisalar va usullar to'plami eksperimental, dizaynli amalga oshirishni ta'minlaydigan xarakatlar, va o'quv jarayonida ixtirochilik qobiliyatini shakllantira olishlarini o'rgatish zarurdir.

STEAM ta'liming uslubiy yechimlarini o'quv jarayoniga joriy etish ilm – fanni bilim bilan birlashtirishga, eng muximi amalimy ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradi. 6 sinf tabiiy fan dasrligida quyidagi mavzular ifodalangan:

Tabiatni o'rganish;

Modda va uning tuzilishi;

Tirik organizmlar xilma xilligi va tuzilishi;

Ekologiya va barqaror rivojlanishi;

Quyosh sitemasi va koinot;

Geografik xaritalar;

Yer qobiqlari;

Energiya, elektr va magnit xodisalari;

Xarakat va kuch kabi mavzulardan iboratdir.

Bu vaqtgacha umumta'lim maktablarda darsliklarda alohida o'rganilgan bu fanlarni tabiiy fanga o'zgartirilishi ta'lim tizimiga STEAMning kirib kelishi va ta'limni zamonaviylashtirishi, bir necha fanlarning integrasiyasi sabab bo'lди. Tabiiy fanlar konteksiga ko'ra o'qituvchi fanga oid tushuncha va bilimlar asosida tevarak atorofimizda sodir bo'layotgan turli xil xodisalarni o'rganish imkoniga ega bo'ladi.

Zamonaviy kasblar har tomonlama o'qitish va turli xil bilimlarni talab qiladi. STEAM ta'limining joriy qilinishi ham ilmiy-texnik taraqqiyotni mustahkamlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini va kasbxunarini oshirish uchun ilmiy-uslubiy bazani yaratish ilmiy va pedagogik xodimlarning sonini oshirish talabini qo'yadi. STEAM ta'lim yo'naliishi tabiatshunoslik komponenti bilan ta'lim dasturlarida innovation texnologiyalar bilan birlgilashda takomillashtirilgan. Biroq STEAM kengroq konsepsiyanı ya'ni ijodkorlikni muvofaqiyatlari kombinasiyasi va texnik bilimni o'zida mujassamlashtiradi. STEAM ta'limi ham o'rgatadi, ham olingen bilimlarni muvofaqiyatlari birlashtirish bilan birlgilashda amaliyotda qo'llay olish imkonini beradi. Natijada ta'lim olayotgan o'quvchi kattalar dunyosiga ko'proq kiradi va kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan cho'chimaydi.

Ta'lim muassasaları o'qituvchilarning malakasini oshirib borish ularning yangi STEAM ta'limini amaliyotda va dars jarayonida qo'llash va mavzuga mos pedagogik texnologiyalarini qo'llay olish imkoniyatini beradi. Mlaka oshirish kurslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalaridan mazmunli foydalana olish, shu bilan birlgilashda malaka oshirish kurslarida STEAM ta'limi bo'yicha treninglar tashkil etish maqsadga muvofidir. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagoglar endilikda fanlararo aloqadorlikni ham ta'minlab berish zaruriyati tug'iladi. Bugungi tezlik bilan rivojlanib borayotgan dunyo barcha sohalarda kuchli bilim va tashabbuskorlikni talab etmoqda. STEAM ta'limining rivojlanishi fanlar orasida aloqadorlikni rivojlanishiga va fanlar orasida ham bugungi kunda integrasiya vujudga kelmoqda. Integrasiyalashgan ta'lim bu ikki va undan ortiq fanlarning ilmiy aloqadorlik asosida bir fanni o'rganishda ikkinchi fandan foydalanishdir. Bu o'rinda STEAM ancha katta bo'lib bir vaqtning o'zida to'rtta fanni o'zaro aloqadorlikda o'rganishdir. STEAM ta'limining qiyinchiliklari bir fan o'qituvchisining o'z fanini bilishi bilan birlgilashda yana ikki yoki uch fanni birlilikda bilishi va o'tadigan mavzusiga integrasiyalashishi talab etilida shu sababli bugungi kunda o'qituvchilar uchun STEAM malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarurdir. Yangi joriy etilgan tabiiy fanlar darsliklarida ham bir nechta fanlarni qo'shilib bitta fan bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni fizika, kimyo, biologiya, geografiya va ekologiya kabi fanlarni integrasiyalashishi natijasida STEAM ta'limi dasturiga muvofiq tabiiy fanlar darsliklari ishlib chiqilgan.

Yuqorida o'rganishlarimizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlarni o'qitishda malaka oshirish kurslarini tugatgunga qadar bitta fanni bir nechta o'qituvchi birlgilashda o'tishi mumkin. Bu fanlar bir-biridan farq qilsada ularning o'zaro aloqadorlikni ko'rish mumkin. Shu sababli o'qituvchilar birlgilashda aloqadorlikda darslarni tashkil etsa o'quvchilar o'zlarining noyob qobiliyatlarini ko'rsatishi mumkin.

STEAM ta'limida qo'llaniladigan eng keng tarqalgan vositalarJ konstruktorlar, robot tizimlari, elektron qurilmalar, video o'yinlar, 3D printerlar, moddelashtirishda ishlataladigan modellar, laboratoriylar va qurilmalar asosiy vositalar sanaladi. STEAM ta'limini joriy etilishi va o'rganilishi natijasida o'quvchilarda quydagilar shakllanadi.

- Muammoni ko'rish qobiliyati;
- Muammoni ko'proq tomonlari va aloqalarini ko'rish qobiliyati;
- Tadqiqot savollarini shakllantirish qobiliyati va uni hal qilish usullari;
- Moslashuvchanlik yangi nuqtai nazarni tushunish qobiliyati;
- O'z fikrni ximoya qilishda barqarorlik qobiliyati;

- G'oyalarni aloqalarni tahlil qilish qobiliyati;
- Aniqlashtirish va tahlil qilish qobiliyati;
- G'oyalarni tashkil etishda tashabbuskorlik kabi qobiliyatlarni shakllantirishga imkon beradi. Bu esa asosiy sir texnologiyalarda emas balki o'quvchi – talablarning iqtidorida va ta'lim tizimidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Волосовец, Т.В. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / Т.В.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверин. - М.: Бином. Лаборатория знаний, 2019. – 58 с
2. Connor, A. M., Karmokar, S., & Whittington, C. (2015). From STEM to STEAM: Strategies for enhancing engineering & technology education. International Journal of Engineering Pedagogy (iJEP), 5(2), 37-47.
3. Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задачв обучении. –М.: Ўқитувчи, 1981. -103 с
4. Адизов Б.Р. Бошлангич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. -280 б.